

NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA LOGOPEDIK RITMIKANING AHAMIYATI

Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Maxsus pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

Yakubova Nozima Maxmudovna

Maxsus pedagogika yo'nalishi 4-kurs talabasi

Axmedova Gavhar Ma'rufjon qizi

Maxsus pedagogika yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: ushu maqolada nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan ishlashda logopedik ritmikani qo'llash, logopedik ritmikaning turlari, ritmika mashg'ulotlarida qo'llaniladigan usullar, logopedik mashg'ulotlarda logopedik ritmikani qo'llash bo'yicha olimlarning ishlari berilgan.

Kalit so'zlar: aspekt, nutqi to'liq rivojlanmaganligi, ritmika, musiqa, mashg'ulot, motor, sensor, Kineziterapiya

Pedagogik aspektida ritmika (grekcha ritmikos so'zi ritmga taalluqli, ravon, bir me'yordagi kabi ma'nolarni beradi) bu harakatning musiqa bilan bog'liqlikda qurilgan jismoniy mashqlar tizimi. Ritmika, ayniqsa, bola yoshida jismoniy va badiiy tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. U bolalarning uyg'unlashgan jismoniy rivojlanishiga, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, harakat aniqligining rivojlanishiga yordamlashadi, bolalarni musiqa, raqs, qo'shiq bilan tanishtiradi, harakatda musiqiy asarning xarakteri va jadalligini aks ettirishga o'rgatadi. Ritmika mashg'ulotlarida sakrash, o'yinli mashqlar, yugurish, badiiy gimnastika elementlari, raqsli va imitatsiyali harakatlardan foydalанилди.

Ritm hissi o'z asosida motorli, faol tabiatga ega va motorli reaktsiya bilan olib boriladi. Bu reaktsiyalarning mohiyati ritmni his qilishda ko'p obrazli kinestetik hislarni uyg'otishdan iborat. Bu til, miya, jag', oyoq barmoqlari muskullarining qisqarishi, hiqildoq, miya, ko'krak qafasi va qo'l-oyoqda vujudga keladigan kuchlanish, bosh va nafas muskulaturasining boshlang'ich qisqarishi va nihoyat, organning makoniylari holatini o'zgarishsiz kuchlanish va bo'shashish fazalarining almashinuvini chaqiruvchi bir-biriga qarama-qarshi (bukuvchi va rostlovchi) muskullarning bir vaqtini o'zida rag'batlantirilishidir.

Birmuncha faol motor reaktsiyalari urg'uni anglashda ko'zga tashlanadi. Bunda harakat haqqoniy va faraz qilingan bo'lishi mumkin. Haqqoniy harakatlar boshlang'ich va to'liq sifatida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich harakatlar tovush burmasidagi va tovush apparatining yordamchi qismlari, shuningdek, barmoq muskullari, lab va boshqa muskullar innervatsiyasi oqibatida yuzaga keladi.

Boshlang'ichda bo'lgani kabı to'liq harakat ham anglanmagan bo'ladi: bola o'zi sezmagan holda oyoqi yoki qo'li bilan chertib maqomga soladi. Faraz qilingan harakat tashqi tomonidan ko'rinxmaydi, eshituvchi uni xayolan tasavvur qiladi.

E.Jak-Dalkroznинг tasdiqlashicha, har qanday ritm harakat demakdir va ritm hissining vujudga kelishi hamda rivojlanishida bizning butun vujudimiz ishtirok etadi. U ritmni badanda his qilmay turib musiqiy ritmni qabul qilish mumkin emas, deb hisoblaydi. Muşıqa doimo hissiy mazmunni ifodalaydi, ritm esa musiqaning ta'sirli vositalaridan biri hisoblanadi.

Albatta, musiqiy ritm ham ba'zi bir hissiy mazmunni ifodalash hisoblanadi va motorli hamda hissiy tabiatga ega. Musiqasiz musiqiy ritm tuyg'usi tug'ilishi ham, rivojlanishi ham mumkin emas.

Ritmli tuyg'u musiqiy-ritmli deb nomlanuvchi musiqiy ritmni tushunish bilan bog'liq musiqani faol boshdan kechirish va vaqtinchalik musiqiy harakatni hissiy ifodalashni nozik his qilish qobiliyati sifatida xarakterlanadi.

Musiqiy-ritmik tuyg'uni rivojlantirish asosida shaxsnı musiqqa va ritm ta'sir etishi yo'li bilan shakllanishiga ko'maklashuvchi musiqiy-ritmik tarbiya quriladi.

SHunday qilib, musiqiy asarlar mavzulari, musiqiy o'yinlar, xorovodlarning turli-tumanligi natijasida bolalarning bilim qobiliyati, iroda sifatlari, hissiy muhitlari rivojlanadi. Musiqiy-ritmik tarbiyaning mazmuni qo'shiq, o'yin, ritmik mehnatli jarayon, bayramlar hisoblanadi.

Musiqiy-ritmik mashg'ulotlarda ko'pincha mashg'ulotdan tashqarida ham o'tkazilishi mumkin bo'lgan harakatli o'yinlardan foydalaniladi.

Ritmni his qilish ob'ektiv ritmning sub'ektiv aksi sifatida tug'ildi va mazmuniy faoliyat jarayonida rivojlandi, shuning uchun uni umuman rivojlantirish

mumkin emas. Bunda inson faoliyatining xarakteridan kelib chiqish zarur. Savol tug'iladi: ritm tuyg'usi haqida umuman qandaydir psixik reallik sifatida gapirish mumkin. Biroq bunda qator aniq ritmik qobiliyatni rivojlantirish natijasini ularni o'zicha umumlashtirishda deb tushunish kerak, bu rivojlanish uchun shart sifatida emas. Bu savolda E.Jak-Dalkroz ritmnini avval mustaqil mohiyat sifatida tarbiyalash kerak, undan keyin shu asosda musiqiy, poetik ritmni, harakat ritmini va h.k. larni deb hisoblab yanglishdi. Harakat inson organizmiga qadimdan, hali tibbiyot endi ko'z ocha boshlayotgan davrda profilaktik va davolash vositasi sifatida energiya ta'sirining natijasi kabi qo'llanildi.

Harakat vositasida davolash uning hamma turlari va shakllarini davolovchi omil sifatida foydalanishni ko'zlaydi. Bolgar olimlari L.Bonev, P.Slinchev, St.Bankov terapiyaning ushbu turini ta'riflash uchun harakatning turli shakllarini, harakat faolligi va insonning tabiiy motorli funksiyalarini qo'llashda birmuncha umumiyligi ta'rif sifatida «kineziterapiya» atamasini qo'llashni taklif qiladilar.

Kineziterapiya ular tomonidan nomaxsus ta'sir etuvchi terapevtik omil guruhi kiritiladi. Harakatning turlicha shakllari va vositalari organizmning umumiyligi reaktivligini o'zgartiradi, uning o'ziga xos bo'limgan mustahkamligini oshiradi, kasallik natijasida tug'iluvchi patologik dinamik stereotiplarni barbos qiladi va zaruriy moslashuvni ta'minlovchi yangilarini yaratadi.

Davolash ritmikasi kineziterapiyaning qismi hisoblanadi. Uning vazifikasi musiqa ostida jismoniy mashqlar tizimi yordamida ritm tuyg'usini rivojlantirish va uni davolash-korrektcion maqsadda foydalanishdan iborat. Logopedik ritmika uning tarkibiy bo'g'ini hisoblanadi. E.Kilinska-Evertovska logoritmikani keng ma'noda korrektcion logopediya ehtiyoji uchun musiqiy-harakatlanuvchan mashqlar tizimi sifatida ta'riflaydi. Logoritmika, o'zining tashkiliy tizimiga qaramasdan, logopedik mashg'ulot tizimining faqat to'ldiruvchisi hisoblanadi, chunki logoritmik mashqlar doimo logopediya maqsadlariga bo'ysunadi. A.Rozental logoritmikani so'zni qo'llagan holda musiqiy ritm uyg'unligiga tayanuvchi nutq korrektsiyasining yangi usuli deb hisoblaydi.

Ritmik va logoritmik ta'sirning bolalarga ahamiyatini ko'plab tadqiqotchilar ta'kidlaganlar. V.M.Bexterev ritmik tarbiyaning quyidagi maqsadlarini ajratadi: ritmik reflekslarni aniqlash, bola organizmini muayyan qo'zg'atuvchilarga (eshitish va ko'rish) javob qilishga ko'niktirish, bolaning asab tizimi faoliyatida muvozanatni o'rnatish, o'ta hayajonlangan bolalarni tinchlantirish va tormozlangan (rivojlanishda kechikkan) bolalarni harakatga solish noto'g'ri va ortiqcha harakatlarni boshqarish. V.A.Gilyarovskiy logopedik ritmika umumiy tonus, motorika, kayfiyatga ta'sir ko'rsatishini yozadi. U markaziy asab tizimidagi asabiy jarayonlarning siljishini mashq qildirishga, qobiqni faollashtirishga ko'maklashadi. Ye.V.CHayanova, Ye.V.Konorova logopedik ritmika diqqat (uning kontsentratsiyasi, hajmi, mustahkamligi, tarqatish) ni, xotirani (ko'rish eshitish, motorli, mantiqiy, majmuaviy) rivojlantiradi deb hisoblaydilar. V.A.Griner va nemis tadqiqotchilari K.Koler (Cr.Kohler) K.SHvabe (CHr.Schwabe) logopedik ritmika psixoterapevtik usul (jamoaviy-psixologik usul, musiqaterapiya) sifatida foydalinish mumkinligini ko'rsatadilar.

Bolalar nutqini korrektsiyalash jarayonida logopedik ritmikani qo'llash zaruriyati to'g'risida V.A.Griner, N.S.Samoylenko, N.A.Vlasova, D.S.Ozeretskovskiy, Yu.A.FLorentskaya ham yozganlar. Ular ritmning umumpedagogik ahamiyati, shaxsning psixofizik muhitida turlicha og'riqli og'ishlarida uning ta'sirini ta'kidlaganlar, logopedik ritmika insonning jismoniy, axloqiy, intellektual va estetik tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib o'tganlar. Zamonaviy tadqiqot ma'lumotlarini umumlashtirish natijasida nutqiy dezontogenezning ba'zi umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Foydanaligan adabiyotlar ro'yhati:

- Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH JARAYONINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI." *Science Promotion* 1.2 (2023): 18-25.

2. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja, and Muxammadjonov Shohruhbek Shuxratbek o'g'li. "INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI." *Science Promotion* 1.1 (2023): 50-57.
3. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Faxriddin To'ychiboyev. "MAXSUS EHTIYOJLI BOLALARNING TA'LIM-TARBIYASIDAGI TENG HUQUQLILIK MUAMMOSINI HAL ETISHDA INKLYUZIV TA'LIMNI AHAMIYATI." *Инновационные исследования в науке* 2.5 (2023): 27-33.
4. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Qunduzabibi Yusupova. "MAXSUS PEDAGOGIKA FANLARINI O 'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN AMALIY MASHG 'ULOTLARINI LOYIHALASH." *Development and innovations in science* 2.5 (2023): 25-31.
5. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Ozoda Samayeva. "INKLYUZIV TA'LIMGA JALB QILINGAN O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI." *Молодые ученые* 1.2 (2023): 99-102.
6. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Nozima Yakubova. "METHODS USED IN FORMING NATIONAL ETIQUETTE SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS OF SPECIAL SCHOOLS." *Молодые ученые* 1.2 (2023): 103-107.
7. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "INCLUSIVE EDUCATIONAL STRUCTURE AS A SOCIAL PHENOMENON." (2023).
8. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "THE EFFECTIVENESS AND DRIVING FORCES OF THE APPLICATION OF PEDAGOGICAL METHODS IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 558-562.
9. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja, and Yigitaliyeva Sarvinoz. "WAYS TO INVOLVE CHILDREN IN NEED OF SPECIAL HELP IN INCLUSIVE EDUCATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 519-523.
10. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g. "THE IMPORTANCE OF INCLUSIVE EDUCATION IN SOLVING THE PROBLEM OF EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 757-764.
11. Oppokhujayev, Khojikhija, and Makhliyo Yuldoshzoda. "PRINCIPLES OF WORKING WITH CHILDREN WITH COCHLEAR

- IMPLANTS." *International Conference on Education and Social Science.* Vol. 1. No. 1. 2023.
- 12.Oppokhujayev, Khojikhuja, and Ziyoda Shavkatova. "PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF NATIONAL ETIQUETTE SKILLS IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION." *International Conference on Multidisciplinary Research.* Vol. 1. No. 1. 2023.
- 13.Sadikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Objectives and tasks of cochlear implantation." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 671-675.
- 14.Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon. "Preparation of preschool children with cochlear implants for independent learning." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 8.8 (2020): 159-161.
- 15.Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon. "Use Of Innovative Technologies In The Formation Of Speech Skills In Children With Hearing Disabilities." *Euro-Asia Conferences.* Vol. 1. No. 1. 2021.
- 16.Shahnigor, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Khomidova. "FORMATION OF KNOWLEDGE, SKILLS AND COMPETENCES IN THE PROCESS OF TRAINING CHILDREN WITH HEARING DEFECTS TO WORK." *Confrencea 3.03* (2023): 188-192.
- 17.Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "COCHLEAR IMPLANTATION: AN INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY, MEDICINE, DEAF PEDAGOGY AND SPEECH THERAPY." *Open Access Repository* 4.2 (2023): 321-330.
- 18.Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabau. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 563-566.
- 19.O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea 3.03* (2023): 226-230.
- 20.Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).

21. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Nabiyeva Umidakhan. "ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
22. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Odilova Rislig'oy. "PROBLEMS OF PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS WITH HEARING DEFECTS FOR FAMILY LIFE." (2023).
23. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Sharafuddinova Zuhra. "FORMATION OF MATHEMATICAL CONCEPTS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2023).
24. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola. "PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea* 3.03 (2023): 63-67.
25. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhan. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
26. Madinakhan, Makhmudova, and Abduvahobova Irodakhan. "PECULIARITIES IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION." (2023).
27. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 8.1 (2020).
28. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan, and Akhmedova Vazirakhan. "EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 134-141.
29. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea* 5.05 (2023): 299-302.